



Green University



ОМСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ

ЎЗБЕКISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO VILOYAT EKOLGIY, ATROF MUHITNI MUHOFAZA
QILISH VA IQLIM O'ZGARISHI BOSHQARMASI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
GREEN UNIVERSITY - MARKAZIY OSIYODA ATROF MUHIT VA
IQLIM O'ZGARISHINI O'RGANISH UNIVERSITETI
KAZAN FEDERAL UNIVERSITETI
TYUMEN DAVLAT UNIVERSITETI
M. AKMULLA NOMIDAGI BOSHQIRDISTON DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
OMSK DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
UI GREENMETRIC – XALQARO REYTING AGENTLIGI

IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA CHO'L – VOHA
EKOSISTEMASI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR
MAVZUSIDAGI XALQARO SIMPOZIUM

MATERIALLARI



BUXORO – 2023

**“IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA CHO‘L – VOHA EKOSISTEMASI:
MUAMMOLAR VA YECHIMLAR” MAVZUSIDAGI XALQARO SIMPOZIUMNING**

DASTURIY QO‘MITASI TARKIBI:

Xamidov O.X.	Buxoro davlat universiteti rektori, i.f.d., prof.
Rasulov T.H.	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, f-m.f.d. (DSc), prof.
Jo‘raev A.T.	Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor, i.f.n., dots.
Umarov M.A.	Buxoro viloyat Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi boshlig‘i
Salixov J.	Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishlarini o‘rganish universiteti - Green University, i.f.d., prof.
Tolstikov A.	Tyumen davlat universiteti birinchi prorektori
Bolshanik P.V.	Omsk davlat pedagogika universiteti dotsenti, i.f.f.d.
Ulengov R.A.	Kazan federal universiteti kafedra mudiri, g.f.n., dots.
Latipova Z.	Boshqirdiston davlat pedagogika universiteti dotsenti, g.f.n.
Xolov Y.D.	Ekologiya va geografiya kafedrasini mudiri, b.f.f.d. (PhD), dots.

TASHKILY QO‘MITASI TARKIBI:

Rasulov T.H.	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, f-m.f.d. (DSc), prof.
Niyozov E.D.	Tabiiy fanlar fakulteti dekani, t.f.n., dots.
Yavmutov D.Sh.	Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekani, i.f.f.d. (PhD), dots.
Nurov Z.S.	Ta‘lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshligi, i.f.f.d. (PhD)
Xollijev A.E.	Ekologiya va geografiya kafedrasini professori, b.f.d.
Haitov Y.Q.	Ekologiya va geografiya kafedrasini professori, g.f.d.
Toshov X.R.	Ekologiya va geografiya kafedrasini dotsenti, g.f.n.
Norboeva U.T.	Ekologiya va geografiya kafedrasini professori, b.f.d.
Ergasheva M.K.	Ekologiya va geografiya kafedrasini dotsenti, g.f.f.d. (PhD)
Halimova G.S.	Ekologiya va geografiya kafedrasini dotsenti, g.f.f.d. (PhD)
Boltaeva Z.A.	Ekologiya va geografiya kafedrasini dotsenti b.f.f.d. (PhD)
Qodirov A.A.	Ekologiya va geografiya kafedrasini katta o‘qituvchisi
Nematov A.N.	Ekologiya va geografiya kafedrasini katta o‘qituvchisi
Ataeva R.O.	Botanika va o‘simliklar fiziologiyasi kafedrasini dotsenti, g.f.f.d. (PhD),

ORGANIK MAHSULOT VA UNDA SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI

M.A.Oripov

Buxoro davlat universiteti "Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası"
dotsenti, I.f.n.

G.S.Ro'ziyeva

Bioiqtisodiyot yo'nalishi 1-kurs magistri.

Annotatsiya: Bugungi kunda ishlab chiqarilayotgan va iste'mol qilinayotgan mahsulotlar inson tanasiga xavf soladi, salomatligining yomonlashuviga olib keladi, chunki ularning tarkibida turli xil kimyoviy elementlar, barcha turdagi gormonlar, antibiotiklar va zararli oziq-ovqat qo'shimchalari mavjud. O'zimiz, yaqinlarimiz va kelajak avlodning salomatligi uchun g'amxo'rlik qilish bizning vazifamizdir. Buning uchun organik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishi va istemolini keng miqyosida yo'lga qo'yish zarurdir. Bundan tashqari agroklastarlardagi biomassadan samarali foydalanib isrofgarchilikning oldinini olish va tabiatni, ekologiyani toza saqlashga o'z hissamizni qo'shishimiz zarurligi ustuvor masaladir.

Kalit so'zlar: Organik mahsulot, gormonlar, oziq-ovqat, sog'lomlik, biomassa, ishlab chiqarish, biologik, ekologik.

Hammanizga ma'lumki har bir xo'jalikda yetishtirilgan mahsulotlarning o'z xaridorlari va istemolchilari mavjud. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari inson organizmga ma'lum miqdorda zararli tasir ko'rsatishi uning yetishtirish texnologiyalariga bog'liqligini bilamiz. So'ngi yillarda insoniyatning organik mahsulotlarga ehtiyoji tobora oshib bormoqda. Sababi organik mahsulotlar tarkibida turli xil kimyoviy elementlar, barcha turdagi gormonlar, antibiotiklar va zararli oziq-ovqat qo'shimchalari bo'lmaydi. Bu esa inson salomatligiga zarar yetkazmay mahsulotning foydali xususiyatlarini yuqori darajada saqlaydi.

Organik qishloq xo'jaligi 20-asrning birinchi yarmida paydo bo'lgan. Bu tuproq salomatligiga, ekologiya va insonlarga g'amxo'rlik qilishga qaratilgan ishlab chiqarishdir. Organik qishloq xo'jaligi jarayonida agroklastarlarga yerdan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish o'rtasidagi muvozanatni saqlash vazifasi yuklatilgan. Bu inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga mas'uliyatli yondashuvining yangi bosqichidir.

Organik mahsulotlar-bu ularni ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, tashish va joriy etishning barcha bosqichlarida organik mahsulotlar to'g'risidagi qonun hujjatlari va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi me'yoriy hujjatlar talablariga javob beradigan ishlab chiqarish texnologiyalaridan foydalangan holda yetishtirilgan sertifikatlangan mahsulotlardir.

Kimyoviy pestidsidlardan holi organik mahsulot yetishtirish jahon bozorida tobora raqobat muhitini kuchaytirmoqda. Organik mahsulotlarni yetishtirish uchun avvalambor kuzgi-qishki agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida sifatli o'tkazish, biomahsulotlar bilan ishlashni tizimli yo'lga qo'yish hamda o'simliklarni organik ozuqa bilan to'yintirib, sifatli, zararsiz oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish zarur bo'ladi.

Organik mahsulotlar ishlab chiqarish uchun quyidagi asosiy talablar belgilanadi:

- sog'lom hayvonlar va o'simliklardan, xavfsiz mahsulotlar va hayvonot va o'simlik xomashyosidan foydalanish;
- organik mahsulotlar to'g'risidagi qonun hujjatlari va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi me'yoriy hujjatlar talablariga javob beradigan texnologiyalardan foydalanish;
- tuproq unumdorligini saqlash, tiklash va yaxshilash;
- ishlab chiqarish uchun organik mahsulotlarning muayyan turini tanlashda ekologik tizimlarni saqlash;
- qayta tiklanadigan tabiiy resurslardan, shu jumladan o'simlik va hayvonot mahsulotlari va chiqindilaridan foydalanish;
- qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslardan foydalanishni qisqartirish;

- inson salomatligiga, o'simliklar va hayvonlarga zarar keltirmaydigan, atrof-muhitning ifloslanish oqibatlarining oldini oluvchi yoki bartaraf etuvchi texnologiyalardan foydalanish va boshqalar.

Organik mahsulotlar ishlab chiqarishda quyidagilar taqiqlanadi:

- sintetik moddalar, pestisidlar, gormonlar, antibiotiklar va kimyoviy oziq-ovqat qo'shimchalaridan foydalanish;

- tuproqdan foydalanmasdan o'simlik mahsulotlarini yetishtirish usullarini qo'llash;

- ionlashtiruvchi nurlanish va o'simliklarni tozalashning kimyoviy usullaridan foydalanish;

- o'g'it sifatida oqava suvlar, chiqindilar va boshqa odam chiqindilaridan tashkil topgan moddalardan foydalanish;

- chiqindilar, kimyoviy va radioaktiv moddalar bilan ifloslangan yer uchastkalari, suv havzalari va ularning qismlaridan foydalanish;

- embriont ransplantasiyasi, klonlash va genetik muhandislik usullaridan, genetik modifikasiyalangan va transgen organizmlardan, shuningdek, genetik modifikasiyalangan va transgen organizmlardan foydalangan holda ishlab chiqarilgan mahsulotlardan foydalanish.

Agroklastarlarda ishlab chiqarilgan organik mahsulotlar chiqindilarining yer usti va yer osti biomassasi, klasterdagi boshqa ishlab chiqarish chiqindilari (hayvonlar go'ngi, o'simliklarning qoldiq massasi)dan samarali foydalanib biogas ishlab chiqarish texnologiyasini yo'lga qo'yish juda katta samara beradi. Agroklastarda ishlab chiqarilgan biogas shu xo'jalikni issiqlik va energiya manbasi bilan taminlaydi, sifatli o'g'it yana qayta ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etib organik mahsulotlar yetishtirishda ko'maklashadi.

Biomassadan energiya manbai sifatida foydalanish uchun katta – katta reaktorlarda (germetik berk bo'lgan idishlarda) biologic chiqindilar qayta ishlanadi. Biogaz olish qurilmalarining ish prinsipi tabiiy biologic jarayonlarning amaldagi ifodasidir. Zamonaviy biogas ishlab chiqarish tabiatda sodir bo'ladigan jarayonlarga asoslanadi, ya'ni hayvonlar oshqozonida hazm qilish faoliyati natijasida sodir bo'ladigan chiqindilardan metanni hosil bo'lishi asos qilib olingan.

Xulosa. Butun jahonda xomashyo va energiyadan foydalanish global muammo bo'lib qolmoqda. Bu muammoni hal qilishning muqobil yo'llaridan biri biogas olish texnologiyasini aholi o'rtasida, hamda sanoat darajasida yo'lga qo'yish hisoblanadi. Hozirgi kunda biogas olish texnologiyasi yaxshi o'rganilgan bo'lib, bir qator xorij mamlakatlarida va bizning yurtimizda muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Respublikamizda fermer xo'jaliklari va aholi xonadonlarida biogazdan foydalanib energiya olishni amalga oshirishda kichik quvvatli uskanalami o'rnatish samarali natija beradi. Bu yo'nalishdagi ishlarni rivojlantirish uchun ichki sarmoyalardan yoki bank kreditlaridan foydalanish yo'lga qo'yilgan.

Biogaz olishda xo'jalik uchun foydali bo'lgan mineral o'g'it o'rmini bosuvchi suvda eruvchan azotli birikma ham hosil bo'ladi va bu bir muncha mablag' tejalishiga ham olib keladi.

Adabiyotlar

1. X.R.Toshov-Tabiiy geografiya Buxoro-2021
2. Орипов Махмуд Ашурович .Роль международного сотрудничества при подготовке кадров и развития "Биоэкономики" в Узбекистане "Узбекистонда "Ақли кишлок хўжалиги" ва "Қишлоқ хўжалиги - 4.0" кон-цепцияларини амалга ошириш: муаммо ва ечимлар".-2021.
3. Орипов Махмуд Ашурович-ОЛИЙ ТА'ЛИМ ТАРАҚҚИЙОТИ ИСТИҚБОЛЛАРИ О'zbekiston Respublikasi ekspertlarining ilmiy-metodik jurnali, 13-son 2020 yilda tashkil etilgan. 2011-yildan boshlab ilmiy-uslubiy to'plam sifatida chop etilgan.<https://erasmus.uz/en/page/89-88-heres>
4. Орипов Махмуд Ашурович Роль-биоэкономики в развитии национальной экономики и охраны окружающей среды узбекистана.
5. Baratov P., Sultanova N.B. Umumiy yer bilimi. T., 2019.